



**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY TA'LİM, FAN VA
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**SAN'AT, TIL VA MADANIYAT MASALALARINI ILMİY
O'RGANISHDA FAN VA INNOVASIYALAR UYG'UNLIGI**

MAVZUSIDAGI ILMİY AMALIY ANJUMAN

Materiallar to'plami

4-may

Buxoro – 2023

San'at, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'r ganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqola va tezislar to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

J.T. Yarashev

- Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent.

TAQRIZCHILAR:

D.Yu. Ruziyev

- p.f.n., prof.

N.Dj. Yadgarov

- p.f.d. (DSc) prof.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

D.I. Mamurova- P.f.f.d. (PhD), dotsent Sh.I. Ibadullayeva- katta o'qituvchi

M.M. Badiyev- t.f.n., dotsent

Sh.U. Sobirova- o'qituvchi

A.R. Shukurov- dotsent

N.I. Ibatova- o'qituvchi

R.N. Raximov- v.v.b. dotsent

Sh.I. Shamsiyev- o'qituvchi

S.N. Gulov- katta o'qituvch

Z.M. Alayeva- o'qituvchi

Respublika ilmiy va ilmiy-texnikaviy amaliy anjumanning ilmiy maqola, tezislar to'plamida san'at, til, madaniyat, musiqa ta'limi hamda tasviriy san'at va ularni o'qitishda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qamrab olingan. San'at, til va madaniyat sohalarida xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar, ularni o'r ganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi hamda mamlakatimizda mazkur sohalarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, metodik tavsiyalar borasidagi takliflarni o'z ichiga olgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'ul dirlar.

4.29.TALABALAR NING MUSIQIY FAOLIYATIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR

Mirshayev Ulug'bek Muzaferovich

*Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrasи katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada talabalarri musiqa fanlaridan mustaqil ta'lrim olishi uchun o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasining shakllanmaganligi, axborot-resurs markazlarida o'quv adabiyotlari va internet manbalaridan foydalanish darajasining pastligi, cholg'u asboblarida ijro etish, vokal, xorda kuylash mahorati yetishmasligi, musiqiy savodxonligi yetarli darajada bo'limgaganligi natijasida mustaqil ravishda musiqiy asarlarni o'rGANISHDAGI muammolar, ularni anglash va badiiy ijro etish bo'yicha ko'nikma va malakalarining yetishmasligi to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lrim, o'z ustida ishslash, kredit-modul, ijodkorlik, kreativlik, kasbiy kompetentlik, ko'nikma va malakalar; intellektual o'rGANUVCHANLIK qobiliyati.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko'nikmaga ega, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni yetishtirib berish zarurligini talab etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida qo'llanilayotgan ta'lrim dasturlarining mamlakatimiz ta'lrim talablariga moslashtirib joriy etish orqali istiqbol cho'qqilariga olib chiqish masalasi - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lrim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'lrim tizimini rivojlantirish masalalarini hukumat tomonidan belgilanib, yuksak talablar asosida muhokama etilishi uning naqadar dolzarbligidan dalolat beradi. Jumladan, 2020-yil 23-sentabrdagi 637-sonli O'zbekiston Respublikasi Ta'lrim to'g'risidagi qonuning 15-moddasida ta'lrim olish shakllaridan kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lrim shakllari bilan bir qatorda masofaviy ta'lrim, dual ta'lrim hamda mustaqil ta'lrim shaklini ham joriy etish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga asosan 2020/2021 o'quv yildan boshlab respublika oliy ta'lrim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System – ECTS) asosida ta'larning kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etila boshlandi.

Kredit-modul tizimi joriy etilgan bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari, o'quv rejasi va fan dasturlari takomillashtirildi. Talabaning muayyan fandan tegishli kreditlarni toplashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirish zarurligi yuzaga keldi. Shunga ko'ra o'quv yuklamaning bakalavriatda 50 - 60% mustaqil ish soatiga bo'lib berilganligi ta'lim berishga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab etdi.

M'lumki, musiqa sohasida talabalarga barcha ta'lim shakllari bo'yicha muayyan DTS, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida bilim berib boriladi. Musiqa sohasining qaysi ta'lim yo'naliishi bo'lishidan qat'iy nazar, yo'naliishlarning o'quv rejalarida auditoriya soatlaridan tashqari talabalarning mustaqil ta'lim olishi uchun ajratilgan soatlar ham o'rinn egallaydi. Namunaviy fan dasturlarida esa mustaqil ta'lim mavzulari o'z aksini topgan bo'ladi. Har bir professor-o'qituvchi o'quv reja hamda fan dasturi asosida mustaqil ta'lim soatlari va mavzulari fanning ishchi o'quv dasturiga kiritadi hamda shu asosida o'qituvchi o'zining o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqadi.

Musiqa ta'limi amaliyotida professor-o'qituvchilar tomomnidan ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari o'tilmoqda ammo, ko'pgina hollarda mustaqil ta'lim bo'yicha talabalarga topshiriq berilmay kelinmoqda. Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talab faqat fanning ishchi dasturi doirasida-gina bo'lib, namunaviy dasturda berilgan o'quv materiallari bajarilmasdan qolmoqda. Bajarilgan holatda ham faqat bitta referat yoki taqdimot tayyorlab berish, cholg'u asbobida musiqa asarini ijro etib berish, qo'shiq kuylab berish bilan cheklanilmoqda. Bu esa tayyorlanayotgan kadrlarning musiqiy bilim saviyasining sifat jihatdan pasayishiga olib kelmoqda. Natijada talabalarning o'quv materiallari bo'yicha fikrlesh doirasi tor holatda shakllanish bilan cheklanib qolmoqda. Ularda musiqa san'ati sohasidagi izlanuvchanlik va ijodkorlikning so'nib ketishi, o'z ustida mustaqil ishslash ko'nikmasining shakllanmaganligi, axborot-resurs markazida o'quv adabiyotlari va internet manbalaridan foydalanish darajasining pastligi musiqa soasi mutaxassislarini xavotirga solib kelmoqda.

Olim M.S.Muxitdinovaning fikriga ko'ra "Hozirgi zamon musiqa ta'limi tizimi mutaxassisida avvalambor kelajakda pedagogik jarayon subyekti bo'lishiga imkon beradigan fazilat va xususiyatlarni loyihalash va shakllantirish lozimdir."^[1] Bunga uning musiqiy-kasbiy kompetentligini belgilovchi professional bilim, ko'nikma va malakalari; intellektual o'rganuvchanlik qobiliyati; aqliy mehnat qila olishi; ruhiy barqarorligi; kreativlilik qobiliyatları va hamkorlik, jamoaviy-tashkiliy, birgalikda, hamnafas faoliyat yuritish qobiliyatları misola bo'ladi. Bu komponentlarning yaxlitligi va rivojlanganligi mutaxassisning professional

mobillik darajasini belgilaydi. Bitiruvchining kelajakda kim bo'lishi, musiqa sohasi ijrochisimi yoki pedagogmi, tayyorgarligi qay daraja va qaysi yoshdagi bolalar kategoriyasi bilan ishlaydi, bularning hammasi loyihalashtirish paytida juda muhim. Natijada, talabaning hayotdagi maqsadi va keyingi faoliyat rejalarini aniqlash uning kasbiy tayyorgarligiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Amaliyotda esa aksariyat talabalarda musiqa cholg'u asboblarida ijro etish, vokal, xorda kuylash mahorati yetishmaydi. Bunga sabab hozirgi vaqtda ko'pgina oliv ta'lim muassasalarida cholg'u ijrochiligi, vokal ijrochiligi, dirijyorlik va boshqa ixtisoslik fanlarida ta'lim berish guruh yoki kichik guruh shaklida amalga oshirilib borilayotganligidir. Bu vaziyat talabalarda cholg'u asboblarida ijro etish, dirijyorlik, xorda kuylash, qo'shiq o'rgatish metodikasi mahoratining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Talabalarning musiqa fanlaridan berilgan vazifalarni bajarishi kerakligini inobatga oladigan bo'lsak, musiqiy ijro mahoratini oshirish uchun talaba o'z ustida ko'proq ishlashi, topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishi kerak. Lekin talabalarning hammasi ham musiqa fanlaridan, jumladan, cholg'u asbobida musiqa asarini ijro etish, vokal-xor malakalarini rivojlantirish, dirijyorlik xatti-harakatlarini o'zlashtirib olish bo'yicha mustaqil ta'lim olish yo'llarini bilmaydilar yoki vaqtlarini rejasiz sarflaydilar, natijada berilgan topshiriqlarni bajarmasdan darslarga keladilar. Bu muammo ustida ko'pgina professor-o'qituvchilar bosh qotirmoqda va o'z fikr-mulohazalarini bildirmoqda. Jumladan, ta'kidlash o'rinniki, musiqiy fanlardan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha ayrim ilmiy izlanishlar amalga oshirilib, metodik qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatma va tavsiyanomalar ham nashr etilgan. Biroq, shunga qaramay, cholg'uda ijro etish, xorda kuylash, vokal-xor malakalari, dirijyorlik, umuman olganda musiqiy savodxonlik darajasi ko'pgina talabalarda past. Bu holatni hozirda o'qib turgan talabalar faoliyatida, shuningdek, o'qishni tugatib o'z kasbi bo'yicha ishlab turgan yosh o'qituvchilar faoliyatida ko'rish mumkin. Bunday kamchiliklarni namoyon bo'layotgaligini turli sabablari bor. Nazarimizda asosiy sababalardan biri - talabalar o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar jarayonida yuqori darajadagi bilimni to'liq olmayotganligidir. Buni amalga oshirishda mustaqil ta'lim jarayoni cholg'u asbobida mustaqil mashq qilish, musiqiy savodxonlikni rivojlantirishda bilimni to'ldiruvchi, malakani rivojlantiruvchi rolini o'tashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.С.Мухитдинова. Педагогика олий мусиқа таълимида бакалаврларни тайёрлашда учраб турадиган муаммолар ва уларнинг ечиш йўллари. ("Science and Education" Scientific Journal December 2020 / Volume 1 Special Issue 4. 243-bet.)

2. Миршаев Улугбек Музafferovich. "МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ШКОЛЬНИКОВ В СЕМЬЕ" Наука, техника и образование, no. 2-1 (77), 2021, pp. 77-80.

3. Самиева Ш., Нарзуллоева Ф. OLIY TALIMDA STRATEGIK FIKRLASH VA KREATIV BOSHQARISH ASOSIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MUHIM YONALISHLARI: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-tehnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 1. – С. 163-177.

4. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.

4.30. OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TALABALARGA AMALIY SAN'AT FANIDAN O'RGATISHNING O'RNI.

Олимов Ширинбой Шарофович

*Доктор педагогических наук, профессор
Бухарского государственного университета*

Мусинова Азиза Садиковна

*Бухарского государственного университета
Преподаватель Бухарского государственного
университета*

Аннотация: В данной статье речь идёт о роли преподавания прикладному искусству студентам обучающихся в высших учебных заведениях Узбекистана. Роль традиций «Наставник и ученик» в воспитании молодёжи страны. Приведены примеры пользы обучению народным промыслам.

Ключевые слова: прикладное искусство, наставник, ученик, национальные ценности, мастер, народные ремёсла, традиции, учебно-образовательный процесс.

Для того чтобы наша молодёжь росла здоровой и гармоничной во всех отношениях, в духе национальных и общечеловеческих ценностей, в сфере образования и воспитания происходят огромные изменения. В частности, создаётся современная система дошкольных образовательных учреждений, введено 11-летнее образование в общеобразовательных школах. В системе высшего образования создаются новые, современные образовательные учреждения, в том числе филиалы престижных зарубежных университетов, кардинально совершенствуется деятельность отрасли.

В народе говорят - "Ремесленник никогда не пропадёт". В последнее время умелые мастера уделяют много времени обучению молодёжи народным ремёслам. Ученики стремятся быть достойными

4.14. MUSIQA TA'LIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	247
4.15. MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	250
4.16. IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABI O'QUVCHILARIGA RUS KOMPOZITORLARI ASARLARINI O'QITISH USULLARI	252
4.17. AMALIY BEZAK SAN'ATI FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER GRAFIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	256
4.18. AMALIY BEZAK SAN'ATI FANINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN GRAFIK DASTURLAR.....	261
4.19. BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISH	263
4.20. O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	267
4.21. TALABALARNING FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI BIR JIHATLARI HAQIDA	269
4.22. BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI.....	271
4.23. БОРИС ВЛАДИМИРОВИЧ АСАФЬЕВ И ПРИЕМЫ СТИЛИЗАЦИИ	273
4.24. CHIZMACHILIK DARSLARIDA KOMPYUTER DASTURIDAN FOYDALANISH IMKONIYATI VA SAMARADORLIGI	277
4.25. PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA CHIZMACHILIK FANINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	279
4.26. MARKAZIY PROYEKSIYALASH (PERSPEKTIVA)DAGI AYRIM POZITSION MASALALAR YECHIMIGA MANTIQIY YONASHUV ..	282
4.27. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI LOYIXALASH VA MODELLASHTIRISH KO'NIKMALASINI OSHIRISH	285
4.28. ARXITEKTURA OB'YEKTIDAGI EKIRISH CHIZIQLARNI EMOTSIONAL IDROK ETISH MEZONLARI.....	287
4.29. TALABALARNING MUSIQIY FAOLIYATIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR...	294
4.30. OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TALABALARGA AMALIY SAN'AT FANIDAN O'RGATISHNING O'RNI	297

**SAN'AT, TIL VA MADANIYAT
MASALALARINI ILMIY
O'RGANISHDA FAN VA
INNOVASIYALAR UYG'UNLIGI**

MAVZUSIDAGI ILMIY AMALIY ANJUMAN

Materiallar to'plami